

DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI

1. Vakillik demokratiyasida qarorlar qay tariqa qabul qilinadi?
 - A) *Sud va Konstitutsiyaviy nazorat idoralari tomonidan qabul qilinadi*
 - B) *Saylov vositasida tarkib toptirilgan siyosiy organlar - qonun chiqaruvchi organlar, mahalliy kengashlar tomonidan qabul qilinadi*
 - C) *Barcha fuqarolar tomonidan bevosita referendumlar, saylovlar, yig'ilishlarda qabul qilinadi*
 - D) *Ijroiya organlari tomonidan qabul qilinadi*
2. O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati konstitutsiyaviy, ma'muriy, fuqarolik, iqtisodiy va jinoyat sudlovi orqali amalga oshiriladi. Sudlar orasidagi bunday taqsimot qanday ataladi?
 - A) *Qonuniylik*
 - B) *Hal qiluvchi qaror*
 - C) *Odil sudlov*
 - D) *Sudga tegishlilik*
3. Xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini va manfaatlarini ifoda etadigan va himoya qiladigan tashkilot qanday ataladi?
 - A) *Jamoat birlashmalari*
 - B) *Xayriya fondlari*
 - C) *Kasaba uyushmalari*
 - D) *Siyosiy partiyalar*
4. Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori ... javobgar hisoblanadi. Nuqtalar o'rniga mos keluvchi javobni aniqlang.
 - A) *O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori va Oliy Sud oldida*
 - B) *Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va Oliy Majlis oldida*
 - C) *O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori va Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi oldida*
 - D) *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori oldida*
5. O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining taraqqiy topishini nechta asosiy yo'nalishlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq?
 - A) *7 ta yo'nalish*
 - B) *6 ta yo'nalish*
 - C) *5 ta yo'nalish*
 - D) *4 ta yo'nalish*
6. Vazirlar Mahkamasi o'z faoliyatini amalga oshirish jarayonida qaysi subyektlar oldida javobgar hisoblanadi?
 - A) *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi*
 - B) *Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi va O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori*
 - C) *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Konstitutsiyaviy Sud*
 - D) *O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va Oliy Sudi*
7. ... lotinchada – qonuniy degan ma'noni bildirib, qandaydir huquq yoki vakolat qonuniyligini tan olish yoki tasdiqlash ma'nosini beradi. Ushbu ta'rif qaysi atamaga tegishli?
 - A) *Ishonch yorlig'i*
 - B) *Legitimlik*
 - C) *Kvorum*
 - D) *Veto*
8. Jamiyat uchun xavfli bo'lgan qilmish (harakat yoki harakatsizlik) nima deb ataladi?
 - A) *Miting va namoyish*
 - B) *Ayblilik*
 - C) *Jinoyat*
 - D) *Huquqqa ziddlik*
9. Davlat funksiyasining ijtimoiy vazifalari to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.
 - A) *Milliy madaniyatni va san'atni rivojlantirish*
 - B) *Sog'liqni saqlash va ta'lim tizimini qo'llab-quvvatlash*
 - C) *Ilm-fan, ta'limni rivojlantirish*
 - D) *Aholining huquq va erkinliklarini ta'minlash*
10. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti kimning taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi a'zolarini tasdiqlaydi?
 - A) *O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokurorining taqdimiga binoan*
 - B) *O'zbekiston Respublikasi Bosh Vazirning taqdimiga binoan*
 - C) *O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Sud Raisining taqdimiga binoan*
 - D) *O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining taqdimiga binoan*

11. Davlatning huquqiy munosabatlariga qarab qanday turlarga ajratish mumkin?
- A) *Demokratik, nodemokratik*
B) *Unitar, federativ va konfederativ*
C) *Etatik davlat, huquqiy davlat*
D) *Monarxiya, respublika*
12. Fransuzchada “qoralovchi”, lotinchada “g‘amxo‘rlik qilish” ma‘nolarini anglatadigan atama nomini toping.
- A) *Adliya* B) *Notarius* C) *Advokat*
D) *Prokuror*
13. Axloq qanday vujudga kelgan?
- A) *Huquq va davlat bilan birga vujudga kelgan*
B) *Davlat tomonidan o‘rnatilgan*
C) *Jamoa a‘zolari tomonidan o‘rnatilgan*
D) *Davlat apparati tarkibida paydo bo‘lgan*
14. Suvereniteti va mustaqilligini saqlab qolgan holda biron-bir maqsadga erishish uchun birlashgan davlatlar ittifoqini anglatuvchi davlat tuzilish shaklini aniqlang.
- A) *Unitar* B) *Totalitar* C) *Federatsiya*
D) *Konfederatsiya*
15. 2017-yil 6-aprelda qabul qilingan qonun bilan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qaysi bo‘limiga o‘zgartirishlar kiritildi?
- A) *VI bo‘lim. Konstitutsiyaga o‘zgartirish kiritish tartibi*
B) *IV bo‘lim. Jamiyat va shaxs*
C) *VII bo‘lim. Ma‘muriy-hududiy va davlat tuzilishi*
D) *V bo‘lim. Davlat hokimiyatining tashkil etilishi*
16. “Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o‘z ota-onalari haqida g‘amxo‘rlik qilishga majburdirlar”. Usbu qoida Konstitutsiyaning nechanchi moddasiga tegishli?
- A) *65-moddasiga* B) *66-moddasiga*
C) *63-moddasiga* D) *64-moddasiga*
17. Qonun chiqaruvchi hokimiyat vakolati qaysi organlarga tegishli?
- A) *Konstitutsiyaviy sud, Oliy Sud, sudlar*
B) *Prezident va Vazirlar Mahkamasi*
C) *Vazirlar Mahkamasi, davlat qo‘mitalari, hokimliklar*
D) *Oliy Majlis, Senat, Qonunchilik palatasi*
18. Mafkuraviy jihatdan zararli hisoblangan maqolalarni taqiqlash maqsadida gazetalar, jurnallar va boshqa nashrlarning chop etish oldidan ko‘zdan kechirilishi qanday ataladi?
- A) *Senzura* B) *Plyuralizm*
C) *Badiiy kengash* D) *Qonuniylik*
19. Davlat pul mablag‘larini aylanishi jumlasida qaysi atamaga mos keladi?
- A) *Moliya* B) *Byudjet* C) *Bank*
D) *Kredit*
20. O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish, fuqarolikni qayta tiklash va fuqarolikdan chiqish qaysi subyekt tomonidan rasmiylashtiriladi?
- A) *O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti*
B) *O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi*
C) *O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi*
D) *O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Fuqarolik masalalari bo‘yicha komissiya*